

HARAKAT NOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

To'rayeva Lutfiya Ro'ziqu洛vna
Navoiy viloyati Uchquduq tumani

18- sonli mакtab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Moqala 6-sinf o'quvchilariga darsga kiramidan yosh o'qituvchilar uchun kichik qo'llanma bo'lib, harakat nomini boshqa fe'lning xoslangan shakllaridan farqli va qiziqarli tomonlarini ochib bergan.

Kalit so'zlari: harakat nomi, fonetik hodisa, shakldoshlik, gap va so'z birikmasi.

Harakat nomi fe'lning otga xoslangan shakli bo'lib, ish-harakatning bajarilish/bajarilmasligi, harakat va holatning nomi kabi ma'noni bildiradi va otning shakl yasovchisini olib, unga xos sintaktik vazifani bajaradi.

Harakat nomi otning shakl yasovchisini olib, otga xos sintaktik vazifani bajarishi otlashish degani emas. Qo'shimchalari: -sh,-ish, -v,-uv,-moq,-mak. Masalan: yozish, saylov, o'quv, ko'rmaq, bilmoq va hz.

I. Harakat nomining yasalishi:

1) fe'l asosiga -sh,-ish qo'shimchasini qo'shish bilan: kelish, borish, ishlash,o'qish, sayrash kabi. Hozirgi o'zbek tilida bu qo'shimcha bilan yasalgan harakat nomi shakli ko'p qo'llaniladi. Qadimgi o'zbek tili davrida esa kam ishlatilgan.

2) fe'l asosiga -v,-uv qo'shimchasini qo'shish bilan: boruv, o'quv, keluv, yozuv, ishlov. Bu qo'shimcha bilan yasalgan harakat nomi hozirgi o'zbek tilida ancha kam qo'llaniladi. Masalan: Bugungi amaliy o'quv mashg'ulotimiz ertaga qoldirildi. A yoki i unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga harakat nomining -v qo'shimchasi qo'shilganda a unlisi o unlisiga i unlisi u unlisiga aylanadi va shunday yoziladi: ishla+v = ishlov; o'qi+v = o'quv

Izoh! O'quv, ishlov, saylov, qistov, tanlov bular otga ko'chgan.

3) Fe'l asosiga -moq qo'shimchasini qo'shish bilan: kelmoq, bormoq, yemoq, o'qimoq. Bu qo'shimcha bilan yasalgan harakat nomi shakli eski o'zbek tilida faol qo'llangan. Hozirgi o'zbek tilida esa nisbatan kamroq ishlatiladi. -moq qo'shimchasi qadimi yodgorliklarda va eski o'zbek tilida - mak shaklida qo'llangan. Bu shakl hozirda badiiy asarlarda ham uchraydi.

II. Harakat nomi fe'lga va otga xos Grammatik belgilarga ega.

Harakat nomi fe'lga xos xususiyatlari:

- 1) mazmunan harakatni bildiradi;
- 2) o'timli – o'timsizlikni ko'rsatish xususiyatiga ega: o'qimoq- o'timli fe'l (kitobni o'qimoq), bormoq- o'timsiz fe'l (uyga bormoq).

3) Boshqa fe'l shakllari kabi kelishiklarni boshqarib keladi: kitobni o'qimoq, mактабга бормоқ, до'кondan чиқмоқ, уйда ўтмоқ каби;

4) Nisbat qo'shimchalarini qabul qiladi: o'qish – aniq nisbatda, o'qitish – orttirma nisbatda, kiyinish – o'zlik nisbatda, kiyilish majhul nisbatda.

5) Boshqa fe'llar kabi bo'lishli va bo'lishsizlik ma'nolarini ko'rsatish xususiyatiga ega. Harakat nomining bo'lishsiz shakli – maslik: o'qish- o'qimaslik, bilish- bilmaslik.

Izoh! Harakat nomi zamon, mayl va shaxs-sonni ko'rsatmaydi, fe'lning noaniq shakli hisoblanadi. Lug'atlarda fe'llar harakat nomi shaklida beriladi.

Harakat nomining otga xos xususiyatlari.

1) Kelishik va egalik qo'shimchalarini qabul qilib turlanadi. Harakat nomining egalik bilan turlanishi otlardan farq qiladi. Chunki harakat nomi egalik qo'shimchasini olganda harakatning bajaruvchisini bildiradi. Harakat nomi tarkibidagi egalik qo'shimchasi bajaruvchining shaxs va sonini bildiradi. Xalqning o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l. (*Fitrat*)

2) harakat nomi gapda ot bajargan sintaktik vazifalarni bajaradi. Ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi ,ot kesim vazifasida keladi.

Harakat nomining sintaktik vazifalari.

Ega	O'qish- koni foyda.
Ot kesim	Mavlon kutib olishi kerak
Qaratqich aniqlovchi	Bilim o'qish va takrorlashning mevasidir.
To'ldiruvchi	Vaqtni samarasiz tortishuvlarga sarflamaylik
Hol	Maktabga borishimda do'stimni ko'rib o'taman.

Izoh! Harakat nomi + egalik shakli + kerak, zarur, darkor ,lozim, mumkin, shart (bog'lamalar) shaklida kelsa shaxsi ma'lum gap hisoblanib, ot kesim vazifasida keladi. Men **o'qishim kerak**. Birga darsga **tayyorlanishimiz mumkin**. Harakat nomi+ kerak, zarur, darkor ,lozim, mumkin, shart shaklida kelsa, shaxsi noma'lum gap hisoblanib ot kesim vazifasida keladi. Masalan: Vazifani bajarish **kerak**. Topshiriqlarni **aytish kerak**. Bu kitoblarni **o'qish mumkin**.

Harakat nomi nega ot kesim tarkibiga kiradi, lekin otli birikma tarkibiga kirmaydi?

Gapning asosiy xususiyati grammatik asosda, ya'ni ega va kesimda. So'z birikmasida bunday xususiyat yo'qligi uchun biz harakat nomini fe'llli birikma tarkibiga qo'shamiz. Bizga ma'lumki, hokim qism qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga qarab ot birikma va fe'llli birikmaga ajratamiz.

Otli birikma	Fe'lli birikma
O'qish kitobi	Xatni yozmoq
Bilish ishtiyogi	Haqiqatni bilish
Ko'rish orzusi	Tez yurmoq

Qo'shimchalar shakldoshligi.

Haqiqatni bilish ushbu so'z brikmasini shaxs va sonda moslashtirsak. Ular haqiqatni bilishdi, deb oladigan bo'lsak, bunda –ish qo'shimchasi harakat nomi qo'shimchasi hisoblanmaydi, u birgalik nisbat qo'shimchasi hisoblanadi. Biz buni qanday farqlaymiz? Harakat nomidan keyin egalik, kelishik qo'shimchlari qo'shilip gapda ot kesim, to'ldiruvchi, hol bo'lib keladi. Haqiqatni **bilishim kerak**. Buni biz yuqorida aytib o'tdik. Birgalik nisbat qo'shimchasidan keyin zamon, shaxs-son qo'shimchalari qo'shilip fe'l kesim vazifasini bajaradi. Ular haqiqatni **bilishdi** (-ish birgalik nisbat,-di o'tgan zamon qo'shimchasi).

Bu kabi omonimlik so'z yasovchi qo'shimchalar tarkibida ham uchraydi.

-moq; quymoq (Suvni **quymoq** harakat nomi; **Quymoqni** yedi ot yasovchi qo'shimcha), ilmoq (harakat nomi), ilmoq (ot , ilgak), qo'shuv (harakat nomi), qo'shuv (ot, matematik belgi). Xulosa.

Ushbu maqola fe'lning xoslangan shakli harakat nomining boshqa xoslangan shakli sifatdosh va ravishdoshdan farqlari to'liq izohlab berilgan. Ko'pgina tortishuvlarga sabab bo'lgan harakat nomi mavzusining murakkablik darajasi nihoyatda sodda , ravon qisqa va misollar bilan ifodalab berilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N. Erkaboyeva - O'zbek tilidan maruzlar to'plami. T.2017.
2. F.A. Abdullayev - O'zbek tilining Oliy grammatisasi II qism. T.1983
3. Mahmudov , Nurmonov va boshqalar - 6- sinf ona tili darsligi. T.2017
4. M. Qodirov, H. Ne'matov va boshqalar – 8- sinf ona tili darsligi. T. 2019